

YALPI HUDUDIY MAHSULOT VA UNING O'SISH SURATLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Karimov Islom G'ulom o'g'li

*Osiyo Xalqaro Universiteti "Iqtisodiyot
(tarmoqlar va sohalar bo'yicha)" yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada yalpi hududiy mahsulot (YHP) va uning o'sish sur'atlariga ta'sir etuvchi omillar keng qamrovli ravishda tahlil qilinadi. YHP mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini o'lchashda muhim ko'rsatkich hisoblanadi va uning o'sish sur'atlari ichki va tashqi omillar, iqtisodiy siyosat va investitsiya muhitining ta'siri bilan belgilanadi. O'zbekiston misolida YHP o'sishining dinamikasi va asosiy ta'sir etuvchi faktorlar batafsil ko'rib chiqiladi.

Annotation

This article provides a comprehensive analysis of the factors that affect the gross regional product (GDP) and its growth rate. GDP is an important indicator in measuring a country's economic development, and its growth rate is determined by internal and external factors, economic policy and the impact of the investment environment. The case of Uzbekistan examines in detail the dynamics of GDP growth and the main influencing factors.

Kalit so'zlar: Yalpi hududiy mahsulot (YHP), O'sish sur'atlari, Iqtisodiy omillar, Investitsiya, Iqtisodiy siyosat, Innovatsiyalar, Tashqi savdo, Mehnat resurslari

Keywords: Gross territorial product (GDP), Growth rates, Economic factors, Investment, Economic policy, Innovation, Foreign trade, Labor resources

Kirish

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM)–milliy hisoblar asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududda joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

Yalpi hududiy mahsulot (GRP) ma'lum bir geografik mintaqaning iqtisodiy ishlab chiqarishini o'lchash uchun juda muhim ko'rsatkichdir. Bu ma'lum bir davrda, odatda bir yil davomida ushbu mintaqada ishlab chiqarilgan barcha tovarlar va xizmatlarning umumiy qiymatini ifodalaydi. GRP mintaqaning iqtisodiy salomatligi, milliy iqtisodiyotga qo'shadigan hissasi va umumiy turmush darajasi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) butun millatning iqtisodiy ishlab chiqarishini o'lchaydigan yalpi ichki mahsulotdan (YaIM) farq qilishini

tushunish muhimdir. GRP iqtisodiy faoliyatni batafsil tahlil qilishga, mamlakat ichidagi alohida mintaqalarning kuchli va zaif tomonlarini ta'kidlashga imkon beradi.

Adabiyotlar tahlili

Mavzuga oid adabiyotlar o'rganilganda, YHPni hisoblash usullari, uning statistik ko'rsatkichlari va iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liq asarlar e'tiborga olinadi. O'zbekiston iqtisodiyoti misolida, milliy statistik ma'lumotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va ilmiy maqolalar tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotlar YHP o'sishini rag'batlantirish uchun zarur bo'lgan omillarni aniqlashga yordam beradi. Masalan, Jahon banki va BMT tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar, iqtisodiy rivojlanishdagi tendentsiyalarni ochib berishda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda iqtisodiy omillar tahlil qilinadi va ularning YaHMga ta'siri statistik ma'lumotlar asosida baholanadi. Xorazm viloyating iqtisodiy ko'rsatkichlari va uning YaHMga ta'sirini ko'rsatadigan grafik va jadvallar keltiriladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'atlarini belgilovchi ko'plab omillar mavjud. Bular jumlasiga aholining bandlik darajasi, real daromadlar, investitsiya faolligi, inflyatsiya sur'atlari, byudjet va pul-kredit siyosati, tashqi iqtisodiy aloqalar, tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik hamda ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi kiradi. Ushbu omillarning o'zaro ta'siri va o'zgarishi yalpi hududiy mahsulot dinamikasi va uning o'sish sur'atlariga katta ta'sir ko'rsatadi.

1. Investitsiyalar: YHPning o'sishida investitsiyalarning roli katta. Xususiy va davlat investitsiyalari, infratuzilma va yangi texnologiyalarga qo'shimcha sarf-xarajatlar iqtisodiy faoliyatni kuchaytiradi. O'zbekistonning oxirgi yillarda amalga oshirgan investitsiya dasturlari misolida, mamlakatda ishlab chiqarish quvvatlari va infrastruktura yaxshilangan. Masalan, 2020-yilda O'zbekistonga xorijiy investitsiyalar jalb qilishda o'zgarishlar kuzatildi, bu esa YHPning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2. Mehnat resurslari: Yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'atlarini belgilashda aholining real daromad darajasi muhim rol o'ynaydi. Agar aholining real daromadlari yuqori bo'lsa, ular ko'proq tovar va xizmatlarni sotib oladi. Bu esa ishlab chiqarish hajmining oshishiga, natijada yalpi hududiy mahsulotning o'sishiga olib keladi. Aksincha, aholining real daromadlari pasayishi iste'mol xarajatlarining qisqarishiga, ishlab chiqarish hajmining kamayishiga va yalpi hududiy mahsulotning sekinroq o'sishiga olib keladi. Shuningdek, kadrlar tayyorlash, ta'lim darajasi va ishchi kuchining samaradorligi ham YHP o'sishiga ta'sir qiladi. Malakali kadrlar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. O'zbekiston ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, masalan, oliy ta'lim muassasalarida yangi yo'nalishlar ochish va mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar, mehnat resurslarining sifatini

oshiradi. Shuningdek, yoshlar uchun ta'lim va ish bilan ta'minlash dasturlari iqtisodiy o'sish uchun muhim ahamiyatga ega.

3. Iqtisodiy siyosat: Davlatning iqtisodiy siyosati, monetar va fiskal siyosatlar, bozor muhitini tartibga solish investitsiyalarga jalb qilish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. O'zbekistonning iqtisodiy islohotlari, xususan, privatizatsiya va liberalizatsiya jarayonlari, mahalliy va xorijiy investorlar uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan. Iqtisodiy siyosatning samarali amalga oshirilishi, inflyatsiyani nazorat qilish (Yuqori inflyatsiya sur'atlari yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Inflyatsiya iste'mol baholarining oshishiga, aholining real daromadlarining pasayishiga, ishlab chiqarish xarajatlarining oshishiga olib keladi. Bu esa ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga, sotish miqdorlarining kamayishiga va natijada yalpi hududiy mahsulot o'sish sur'atlarining pasayishiga sabab bo'ladi. Aksincha, past inflyatsiya sur'atlari tovar va xizmatlarning qulay narxlari uchun qulay muhit yaratadi, bu esa iste'mol samaradorligini oshiradi va yalpi hududiy mahsulotning o'sishiga ko'maklashadi.) va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash orqali o'sish sur'atlariga ijobiy ta'sir qiladi. Pul-kredit siyosati faiz stavkalarini nazorat qilish va pullar aylanishini tartibga solish orqali yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'atlariga ta'sir ko'rsatadi. Foiz stavkalarining pasayishi investitsiya va iste'mol talab-ehtiyojlarini rag'batlantiradi, bu esa ishlab chiqarish hajmining oshishiga, natijada yalpi hududiy mahsulotning o'sishiga olib keladi. Aksincha, foiz stavkalarining o'sishi investitsiyalar va iste'mol xarajatlarining qisqarishiga, shuningdek, yalpi talab pasayishiga va yalpi hududiy mahsulot o'sish sur'atlarining pasayishiga olib keladi.

4. Tashqi savdo: Eksport va import balansi, savdo siyosati va global bozorlar bilan integratsiya darajasi YHPga ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonning tashqi savdo siyosati, yangi bozorlarni egallash va eksportni ko'paytirishga qaratilgan. O'zbekistonning qishloq xo'jaligi mahsulotlari va to'qimachilik sanoati sohasidagi eksport faoliyati, YHP o'sishida muhim rol o'ynaydi. Masalan, 2021-yilda O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlarini eksport qilishda jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirdi.

5. Innovatsiyalar va texnologiyalar: Innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga yordam beradi, bu esa o'sish sur'atlarini oshiradi. O'zbekistonning innovatsion rivojlanish dasturlari, IT sohasida yangi startaplar va texnologik yechimlarni rivojlantirishga qaratilgan. Yangi texnologiyalarni joriy etish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Ushbu jarayonlar, o'z navbatida, YHPni oshirishga xizmat qiladi.

6. Byudjet siyosati: Byudjet siyosati yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Hukumat sarflari (davlat investitsiyalari, xaridlari, subsidiyalari va boshqalar) iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi va yalpi talabni oshiradi. Shuningdek, soliq siyosati ham yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'atlariga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, soliq imtiyozlari biznesni rivojlantirish va yangi investitsiyalarni

jalb qilishga yordam beradi. Aksincha, soliqlarning ortishi kompaniyalar va iste'molchilar uchun qulaysiz shart-sharoitlar yaratadi.

Quyida Buxoro viloyatining Yalpi hududiy ma'lumotlarini tahlil qilib chiqamiz:

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yil yanvar-dekabr oylarida Buxoro viloyatining ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YAHM) ning hajmi 53 232,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022 yilning yanvar-dekabr oylari bilan taqqoslaganda 5,2 foizga o'sdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 5,0 foizga yetdi.



2022-2023- yillarning yanvar- dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari

	Mlrd. so'm		o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2022 yil	2023 yil	
I. YAHM	46 126,2	53 232,3	105,2
<i>shu jumladan:</i>			
armoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	44 091,4	51 154,5	105,1
Mahsulotlarga sof soliqlar	2 034,8	2 077,8	106,5
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	44 091,4	51 154,5	105,1
shloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	19 430,1	22 178,8	104,0
noat (qurilishni qo'shgan holda)	11 554,3	13 519,8	106,5
sanoat	8 003,1	9 369,8	106,1




qurilish

3 551,2 4 150,0 107,5

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 26 262,9 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,4 foizga yuqoridir.



2022-2023- yillarning yanvar- dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘shish sur‘atlari
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,1 foizini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,9 foizini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 43,4 foizni, sanoat tarmog‘ining ulushi 18,3 foizni, qurilish sohasida 8,1 foizni va xizmatlar sohasi 30,2 foizni tashkil qildi.


	2022 yil	2023 yil

		100,0	100,0
I. YAHM			
<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	95,6	96,1
	Mahsulotlarga sof soliqlar	4,4	3,9
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati		100,0	100,0
	shloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	44,1	43,4
	noat (qurilishni qo‘shgan holda)	26,3	26,4
	sanoat	18,2	18,3
	qurilish	8,1	8,1
Xizmatlar		29,6	30,2
	vd, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	7,4	7,5
	shish va saqlash, axborot va aloqa	5,2	5,5
	boshqa xizmat tarmoqlari	17,0	17,2

2023- yil



YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,0 foiz (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi (43,4 foiz), sanoatda 106,1 foiz (18,3 foiz), qurilishda 107,5 foiz (8,1 foiz), xizmatlar sohasida 105,6 foizni 30,2 foiz) tashkil etdi.




Ac


2023 yilga YAHM deflyatori indeksi 2022 yildagi narxlarga nisbatan 109,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar

sohasida 111,6 foiz va sanoatda 110,4 foiz qayd etildi.

2022-2023- yillarning yanvar- dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2022-2023- yillarning yanvar- dekabr oylarida Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik 36 658,6 mlrd. so'mni tashkil etib (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida – 31 961,1 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 71,7 %ni tashkil qildi (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida –72,5 %).

Kichik tadbirkorlik-ning YAHMdagi ulushi-ning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan

Xulosa

Yalpi hududiy mahsulot va uning o'sish sur'atlariga ta'sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega. Investitsiyalar, mehnat resurslari, iqtisodiy siyosat, tashqi savdo va innovatsiyalar o'sish sur'atlarining asosiy tayanchlari hisoblanadi. O'zbekiston misolida, o'sish

sur'atlarini oshirish uchun yuqorida keltirilgan omillarni yanada rivojlantirish va takomillashtirish zarur. Ushbu o'zgarishlar, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash va xalq farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Ichki mahsulotning barqaror o'sishi uzoq muddatli istiqbolni va inson kapitali, innovatsiyalar va infratuzilmaga investitsiyalarga e'tiborni talab qiladi. Ta'lim va ko'nikmalarni rivojlantirishni rag'batlantirish, tadbirkorlikni rag'batlantirish va tadqiqotlar va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash mintaqaning uzoq muddatli o'sish salohiyatini oshirishi mumkin. Barqaror infratuzilmaga sarmoya kiritish, qayta tiklanadigan energiyani rag'batlantirish va ekologik toza siyosatni amalga oshirish iqtisodiy o'sishning ham mustahkam, ham barqaror bo'lishini ta'minlaydi. Hukumat, biznes va akademiya o'rtasidagi hamkorlik yalpi hududiy mahsulotning barqaror o'sishi uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasining statistikasi) ma'lumotlari
3. O'zbekistonda chorvachilik: hozirgi holat, muammolar va rivojlanish istiqbollari. Tahliliy hisobot. BMTTD nashriyoti, Toshkent, 2009,
4. Maksakova, L., Mamadaliyeva, F.: O'zbekiston: zamonaviy demografik tendensiyalar. (617-618)
5. Shakurov Sh., Kim V.: O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari (2005-2014).
6. Kerimova, D.: O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining demografik jihatlari
7. <https://my.stat.uz>
8. <https://www.researchgate.net>
9. <https://buxoro.stat.uz/>
10. <https://iopscience.iop.org/>